



## O'YINLASHTIRISHNING (GEYMIFIKATSIYANING) ONA TILI TA'LIMIGA TATBIQ ETILISHI XUSUSIDA

*O'roqova Yulduz Ortiqniyozovna*

*Mustaqil izlanuvchi, Toshkent Davlat*

*O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'yinlashtirish (geymifikatsiya) konsepsiyasining ta'limiy mohiyati va uni ona tili darslariga tatbiq etishning nazariy imkoniyatlari hamda cheklovlari tahlil qilinadi. O'yinlashtirishning didaktik o'yinlardan farqi, umumiy va o'ziga xos jihatlari ko'rsatiladi; ona tili ta'limida geymifikatsiya elementlarini qo'llashning istiqbollari belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** geymifikatsiya, o'yinlashtirish, ta'limiy motivatsiya, ballar tizimi, ona tili ta'limi.

O'yinlashtirish (geymifikatsiya) – kompyuter o'yinlariga xos bo'lgan mexanizmlar va tamoyillarni (ballar, darajalar, yutuvchilar jadvali, yutuqlar nishoni va h.k.) o'yin bo'lmagan kontekstlarga, jumladan ta'limga tatbiq etishdir [1.12]. Pensilvaniya universiteti professori Kevin Verbax geymifikatsiyani “o'yin bo'lmagan jarayonlarda o'yinga xos usullarni qo'llash” sifatida ta'riflaydi [2.9]. Ushbu konsepsiya so'nggi o'n yilda ta'lim sohasida keng e'tiborga sazovor bo'ldi.

Ona tili ta'limida geymifikatsiyaning imkoniyatlari hali yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda ko'proq umumiy ta'lim jarayoniga, chet tillarini o'qitishga (Duolingo, Memrise platformalari) tatbiq etilgan geymifikatsiya tadqiqotlari uchraydi [3.44]. Ona tili ta'limida, xususan, o'zbek tilini o'z ona tilida o'quvchilarga o'qitishda geymifikatsiya elementlarining qo'llanilishi yanada chuqur nazariy asoslab berishni talab etadi.

Ushbu nazariy tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontseptual modellashtirish va deduktiv fikrlash usullari qo'llanildi. Geymifikatsiya nazariyasiga oid xorijiy manbalar (Verbakh K., Hunter D.;



Huotari K., Hamari J.), o'zbek ta'lim tizimidagi o'yin texnologiyalariga oid adabiyotlar hamda maktab amaliyotiga oid uslubiy ko'rsatmalar tahlil qilindi [4.17].

Geymifikatsiya ko'pincha didaktik o'yin bilan aralashtiriladi, ammo bu ikki tushuncha o'rtasida muhim farq mavjud. Didaktik o'yin – bu muayyan o'quv maqsadiga yo'naltirilgan yaxlit faoliyat turi; geymifikatsiya esa o'yin faoliyatining o'zini emas, balki uning motivatsion mexanizmlarini ta'lim jarayoniga joriy etishdir [5.33]. Ya'ni, geymifikatsiyalashtirilgan ona tili darsida o'quvchilar o'yin o'ynamaydi, ular to'g'ri javob uchun ball, yutuq nishoni yoki daraja oladi.

Ona tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan geymifikatsiya elementlari: (1) Ballar tizimi – har bir to'g'ri javob, ijodiy topshiriq yoki faol ishtirok uchun ball berish; (2) Yutuvchilar jadvali – sinf bo'yicha ball reyting ro'yxati; (3) Yutuqlar nishonlari –“Eng ijodkor fikr”, “Mukammal diktant” kabi nishonlar; (4) Darajalar – o'quvchi ma'lum ballar to'plashi bilan keyingi darajaga o'tishi [6.29]; (5) Vazifalar zanjiri –har biri avvalgisiga asoslanadigan topshiriqlar ketma-ketligi [7.41].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiya elementlari o'quvchilarning o'quv motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, 13–16 yoshli o'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarning 91,2% ta'lim maqsadlarida o'yinlashtirish usullaridan foydalanishni o'rinli deb hisoblagan [8.53]. Biroq, geymifikatsiyaning potensial kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, ballar va reyting tizimi raqobatni kuchaytirishi va natijada zaif o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi mumkin [9.66]. Ikkinchidan, tashqi mukofot (ball, nishon) vaqt o'tishi bilan ichki motivatsiyani siqib chiqarishi ehtimoli bor, bu pedagogik psixologiyada “overjustification effekti” deb ataladi [10.44]. Uchinchidan, moddiy-texnik base etishmasligi geymifikatsiyaning raqamli elementlarini joriy etishni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiya ona tili ta'limida ham samarali qo'llanilishi mumkin, ammo bu sohada o'ziga xos ehtiyotkorlik talab etiladi. Ona tili darslari – bu avvalo muloqot, ijod va til madaniyatini rivojlantirish maydoni. Shu sababli, geymifikatsiya elementlari nutqiy faoliyatni rag'batlantirishi kerak, raqobatni kuchaytirish uchun emas [11.28].



Samarali geymifikatsiya strategiyasi sifatida quyidagi yondashuv tavsiya etiladi: individual muvaffaqiyatni rag'batlantiradigan (sinfnikilari bilan emas, o'zining avvalgi natijasi bilan solishtirish), ijodiy va kommunikativ topshiriqlarga mo'ljallangan, ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi geymifikatsiya elementlaridan foydalanish [12.14]. Bu yondashuv ona tili darslarining asosiy pedagogik maqsadlariga zid kelmagan holda o'yinlashtirish afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, geymifikatsiya ona tili ta'limida katta imkoniyatlar ochadi, ammo uning metodologiyasi ona tili darslarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilishi shart. Bu yo'nalishda kelajakdagi empirik tadqiqotlar zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Huotari K., Hamari J. Defining Gamification. In Proceeding of the 16th International Academic MindTrek Conference. – ACM, 2012.
2. Verbakh K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. – Wharton Digital Press, 2012.
3. Ta'lim jarayonini o'yinlashtirish / M.V.Eyxorn tahriri ostida uslubiy qo'llanma. – Tomsk, 2015.
4. Kavtaradze D.N. O'qitish va o'yin: interaktiv o'qitish usullariga kirish. – Moskva: Prosvesheniye, 2014.
5. Bokov L.A. Elita mutaxassislarni tayyorlashda loyihaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Amaliy va fundamental tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2014, №1.
6. Yermolayeva M.G. Ta'lim jarayonida o'yin: uslubiy qo'llanma. – Sankt-Peterburg: SPb APPO, 2015.
7. Isamitdinov S. Ta'lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
8. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.



9. Zamyatina O.M. Elita texnik tayyorgarlik dasturini takomillashtirish: kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv. Ta'limdagi innovatsiyalar, 2013, №10.
10. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – Plenum, 1985.
11. Mavlonova K.M. Approaches and Principles Concerning Studying Properties of Artistic Text Language. Eastern European Scientific Journal, 2020.